

FIZIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA YUZAGA KELUVCHI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Bozorova Guljahon Bahronovna

Navoiy viloyati nurota tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari, mavhum tushunchalar bilan bog'liq qiyinchiliklar, laboratoriya tajribalarining cheklovlari va pedagogik cheklovlar o'qituvchilar malakasini oshirish va yanada qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratish uchun texnologik yutuqlardan foydalanish to'g'risida to'liq bayon etilgan.

Kalit so'zlar: fizika fani, o'qitish jarayoni, muammoli o'qitish, zamonaviy texnologiyalar, fizika metodikasi, texnologik yutuqlar.

Kirish:

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangicha tafakkur, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Fizika fanini o'qitishni takomillashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning aql zaxirasidagi bilimlar doirasini chuqurlashtirish va yangi imkoniyatlarga tayanuvchi samarali usullarni joriy qilish dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lib, u asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Ma'lumki ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda o'quvchilar tomonidan fizik hodisalarning sabablari, mazmunini chuqurroq bilish, fizika qonunlarning mohiyatini tushunib olishga erishish katta ahamiyatga egadir. Chunki egallangan mukammal bilim mutaxassislik fanlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilsa, bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarining egallanganligi bo'lajak mutaxassislarning amaliy faoliyati uchun zarurdir. Tabiiy fanlar, jumladan fizika fani bo'yicha an'anaviy usulda olib borilayotgan mashg'ulotlar o'quvchilar uchun zerikarli bo'lib, bilimlarni egallashda ular "passiv" pozitsiyada bo'ladilar. Tayyor tarzda olingan ma'lumot, axborotlar tinglovchilar, o'quvchilar xotiralarida uzoq saqlanmaydilar va ularning bilim egallashga nisbatan ijodiy yondashuv ko'nikmalari rivojlanmay qolaveradi.

Natijalar:

Fizika fani rivojlanishining bugungi bosqichida egallanishi kerak bo'lgan bilimlar hajmi va ko'lamining keskin oshib borishi ham bilim jarayonida o'quvchilarning faollik darajasini oshirishni taqozo qiladi. Bilim berishning faol usullaridan biri muammoli o'qitishdir. Muammoli o'qitishning muhim vazifasi o'quvchilar tomonidan ijodiy faoliyat, ilmiy izlanish usullarini asta-sekin egallab borishlariga erishish va ularda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini uyg'otish, shuningdek rivojlantirib borishdan iboratdir.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi doimiy tarzda muammoli savollar, masalalar, vazifalar yordamida muammoli vaziyatlarni yaratib, o'rganilayotgan mavzuga tegishli o'quv muammolarini hal qilishda o'quvchilarning mustaqil faoliyatini to'g'ri tashkil qilib, kerakli bilimlarni o'quvchilarga berib borish kerak. Muammoli vaziyat muammoli o'qitishning asosiy elementi bo'lib, yangi fikrlar paydo bo'lishiga, o'quvchilarning bilim olishga ehtiyoj sezishiga fikr-mulohazalarini faollashtirishga yordam beradi.

Muhokama:

Fizikada o'qiladigan ma'ruzalarda, o'quvchilarni bayon qilayotgan materiallar o'quv adabiyotlarda qanday darajada berilganligi bilan tanishtirish juda muhim sanaladi. Ko'pchilik ma'ruzada o'qiydigan o'qituvchilar, rejani bajarishga harakat qilib ushbu masalaga yetarli darajada e'tibor qaratishmaydi, bu esa jiddiy kamchilik hisoblanadi. Aynan shu masala fizika fanini o'qitish metodlarida yuzaga keluvchi muammolardan biri sanaladi.

Dars o'tish samarasiga ta'sir qiluvchi yana bir omil savol-javoblar bilan bog'liq. Ayrim o'qituvchilar dars oxirida o'quvchilarga savol bilan yuzlana boshlashadi. O'quvchidan dars jarayonida istalgan vaqtda savol javob qilib turishi kerak. Bu o'quvchining hushyorligini oshirish bilan bir qatorda tezkorlik hamda bilimini ham oshirishga olib keladi. Fizika fanini o'qitish, bugungi kunda o'ziga xos global muammolarga duch kelgan zamonaviy insonlarning dunyoqarashini rivojlantirishda, o'zining munosib hissasini qo'shadi. Bu fizika fanining tabiiy fanlar orasida egallagan fundamental o'rni va xususiyatlardan kelib chiqadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, fizika o'quv predmeti sifatida kelajak avlodga ta'lim berishda tarbiyalashda katta potensial imkoniyatlarga bo'lib, uning intellektual salohiyatining rivojlanishiga, ishlab chiqarishning ilmiy texnik iqtisodiy va ekologik asoslarini chuqur bilishni taqozo etadi. Fizika fanini o'qitish jarayoni murakkab va mas'uliyatli bo'lib, u olam haqida fizik tasavvurlarni shakllantiribgina qolmasdan, davr talabiga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalashga ham mas'uldir. Fizika metodikasini o'qitadigan o'qituvchi birinchi o'rinda fizikadan chuqur bilimiga,

zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida tasavvurga ega hamda ijodkor bo'lishi kerak, shundagina uning amaliy faoliyati samarali bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma M. Jo'rayev-Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2005.
2. Davranov V.H. Maktablarda fizika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. // Talabalarning ilmiy jamoasi XXI asrlar. 2001.
3. Baydedayev A., Mamadazimov M. Djorayev M va boshq. Maktabda fizika va astronomiya o'qitish. - T.: O'qituvchi, 2007.
4. Ta'lim bo'yicha axborot texnologiyalari: O'qish uchun qo'llanma. 2008.